

**O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan
mandarin importi bozori yuzasidan o‘tkazilgan o‘rganish natijalari bo‘yicha
MA’LUMOTNOMA**

I. SITRUS MEVALARINI IMPORT QILISH TARTIBI.

1. Bojxona rasmiylashtiruvi:

Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tishda, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 289-moddasida nazarda tutilgan quyidagi bojxona to‘lovlari undiriladi:

- **bojxona yig‘imlari** - 0,2 foiz;
- **bojxona boji** – 20 foiz;
- **qo‘shilgan qiymat solig‘i** – 15 foiz.

2. Karantin tekshiruvi:

Bundan tashqari, mandarinlarni va boshqa sitrus mevalarni import qilishda Vazirlar Mahkamasini huzuridagi “O‘zdavkarantin” tomonidan **jami 2ta ruxsatnoma rasmiylashtiriladi.**

– karantin ruxsatnomasi olish uchun yig‘im – bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida (223 000 so‘m), har oy uchun bir marta beriladi (*Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.01.2018-yildagi 65-sonli qarori*);

– transport birligini ochish dalolatnomasi va o‘simliklar karantini ko‘rigi dalolatnomasi – bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida (223 000 so‘m), transport vositasining hajmidan qat’iy nazar har bir transport birligi uchun alohida rasmiylashtiriladi (*Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.01.2018-yildagi 65-sonli qarori*).

3. “O‘zstandart” agentligining muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish tartibi:

– **Muvofiqlik sertifikati uchun to‘lov** – 1-5 turgacha bo‘lgan mahsulot sertifikati uchun **686 500 so‘m** va xizmat haqi uchun mahsulotning har bir turi uchun **alohida 229 540 so‘m**, xarajatlardan kelib chiqib, yuqori turuvchi tashkilot tomonidan belgilanadigan tariflar bo‘yicha (*Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.07.2004-yildagi 318-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 11.10.2013-yilda 2516-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga haq to‘lash Qoidalari*).

4. Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligining sanitariya-epidemiologik xulosasini (Gigiyenik sertifikatini) rasmiylashtirish tartibi:

Sanitariya-epidemiologik xulosa (Gigiyenik sertifikat) rasmiylashtirish uchun to‘lov – har bir yuk xati bo‘yicha banan, kivi, mandarin, apelsin uchun **654 400 so‘m** va ananas (genetik usul yordamida sun‘iy ravishda o‘zgartirilgan organizmlar) uchun **1 285 399 so‘m (654 400 so‘m + 630 999 so‘m)**, xarajatlardan kelib chiqib, yuqori turuvchi tashkilot bilan kelishilgan holda belgilanadigan tariflar bo‘yicha mahsulotning yaroqlilik davriga, yaroqlilik muddatiga ega bo‘lmagan mahsulotga esa muddati ko‘rsatilmasdan beriladi (*Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.07.2004-yildagi 318-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 28.11.2005-yilda 1525-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste‘moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnoma*).

5. Import qilingan tovarning Bojxona qiymatini aniqlash tartibi.

Bojxona organlari narx ma'lumotlari byulletenidan O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida belgilangan tartibda tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda va nazorat qilishda foydalanadi.

(Asos: Byulleten Senovoy informatsii GTK RUz i MIVT RUz №BSI №8-10 ot 15.10.2020g. hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.05.2020-yildagi 283-sonli qarori 32-34- bandlari).

6. O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomalari asosida belgilangan tashqi savdo rejimlari.

O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo zonasini tashkil etuvchi yoki O'zbekiston Respublikasi erkin savdo rejimini belgilagan davlatlarda ishlab chiqarilgan va ushbu davlatlardan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona bojlari qo'llanilmaydi (ASOS: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil iyunda 3267-son bilan davlat ruyxatidan o'tkazilgan, 10 ta davlat bilan bitimlar imzolangan).

Eng ko'p qulaylik rejimini yaratgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi bitimlar imzolangan davlatlar ro'yxatiga – 47 ta davlatlar kiritilgan.

Erkin savdo rejimini yaratgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi bitimlar imzolangan davlatlar ro'yxatiga – 10 ta davlatlar kiritilgan.

Izoh: Boj tarifi bilan belgilangan stavkalar mikdoridagi bojxona bojlari O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimini qo'llayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan, tovarni jo'natuvchi va eksport qiluvchi mamlakatdan qat'iy nazar qo'llaniladi.

Savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yohud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan bojxona bojlarining stavkalari ikki baravar oshiriladi.

II. BOJXONA VA STATISTIKA QO'MITALARIDAN OLINGAN MA'LUMOTLAR TAHLILI

O'rganish natijasi bo'yicha quyidagi holatlar aniqlandi.

Bojxona va Statistika davlat qo'mitalaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra:

2020-yilning 10 oyida O'zbekistonga xorijiy davlatlardan import qilingan sitrus mevalar turlari:

Banan – 17,6 mln. AQSH dollariga teng **26,5 ming tonna;**

Avokado – 21,6 ming AQSH dollariga teng **30,2 tonna;**

Ananas – 258,1 ming AQSH dollariga teng **382,4 tonna;**

Mandarin – 3,5 mln. AQSH dollariga teng 22,4 ming tonna;

Apelsin – 1,7 mln. AQSH dollariga teng **2,7 ming tonna.**

Joriy yilning **1-dekabr holatiga** O'zbekistonga 11 ta xorijiy davlatdan qiymati 4,0 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan **23,8 ming tonna mandarin import qilingan.**

2019-yilning 1-dekabr holatiga esa O'zbekistonga **24,6 ming tonna mandarin** import qilingan edi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **mandarin import hajmi 0,8 ming tonnaga kamaygan.**

2020-yilning 11 oyi davomida O'zbekistonga **mandarin mahsulotini** eng ko'p miqdorda eksport qilgan eng yirik eksportchi davlatlar ro'yxati va ularning umumiy importdagi ulushi quyidagicha:

Pokiston – 19,5 ming tonna (81,9 %);

Xitoy – 2,2 ming tonna (9,2 %);

Turkiya – 1,3 ming tonna (5,46 %);

Misr – 214,2 tonna (0,9 %);

Qozog‘iston – 156,3 tonna (0,65 %);

Boshqa davlatlar – 429,5 tonna (1,8 %);

2019-yil va 2020-yilning hisobot davrida Mandarin (TIF TN kodi: 0805210000) importini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarni, ularning davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik manzili kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019-2020-yil 11 oy yakuni bilan (1-dekabr holatiga) hududlar kesimida mandarin mahsuloti importchilari soni quyidagi ko‘rinishni kasb etdi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 1 ta importchi yuridik shaxs;

Andijon viloyati – 6 ta importchi yuridik shaxslar;

Buxoro viloyati – 3 ta importchi yuridik shaxslar;

Jizzax viloyati – 2 ta importchi yuridik shaxslar;

Qashqadaryo viloyati – 5 ta importchi yuridik shaxslar;

Navoiy viloyati – 1 ta importchi yuridik shaxs;

Namangan viloyati – yo‘q;

Samarqand viloyati – 14 ta importchi yuridik shaxslar;

Surxondaryo viloyati – 15 ta importchi yuridik shaxslar;

Sirdaryo viloyati – 3 ta importchi yuridik shaxslar;

Toshkent viloyati – 5 ta importchi yuridik shaxslar;

Farg‘ona viloyati – 13 ta importchi yuridik shaxslar;

Xorazm viloyati – 1 ta importchi yuridik shaxs;

Toshkent shahri – 39 ta importchi yuridik shaxslar;

Importni amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarkibi.

Ta’kidlash joizki, 2019-yil mobaynida respublikaga mandarin importi bilan shug‘ullangan tadbirkorlik subyektlari (yuridik shaxslar) soni jami **85 tani** tashkil qilgan bo‘lsa, joriy yilning 11 oyi yakuni bilan importchilar soni sezilarli darajada kamaygan va atigi **58 tani tashkil qilgan xolos (ya’ni, importchi yuridik shaxslar soni 27taga yoki 31,8% kamaygan).**

Bundan tashqari, 2020-yilning hisobot davrida (2020-yilning 1-dekabr holatiga) importchi subyektlar tarkibida jismoniy shaxslar (YATTLar) ulushi umuman mavjud emasligi aniqlandi (2019-yilda – Mandarin importini amalga oshirgan **YATTLar soni 19tani tashkil etgan edi).**

Jismoniy shaxslar (YATT)lar tomonidan 2019-yil mobaynida import qilingan mandarin mahsulotining netto hajmi 7 mln. 364 min 606 kg.ni (yoki - **7365 tonna mandarin mahsulotini – importning umumiy qiymati - 1846,89 ming AQSH doll**) tashkil qilgan. Ta’kidlash joizki, 2019-yil davomida mandarin mahsulotining umumiy import hajmida **Jismoniy shaxslar (YATT)larning ulushi 29,9%ni tashkil qilgan.**

2019-yil davomida mandarin mahsulotini O‘zbekiston Respublikasiga import qilgan **5 ta yirik importchi** yuridik shaxslarning ulushi – **42,88% yoki 10 553 800,48 kg** mahsulotni tashkil etdi.

2020-yilning 11 oyi davomida mandarin mahsulotini O‘zbekiston Respublikasiga import qilgan **5 ta yirik importchi** yuridik shaxslarning ulushi – **54,12% yoki 12 885 582,8 kg** mahsulotni tashkil etdi.

Yirik importchilar tarkibi deyarlik to‘liq tarkibda o‘zgargan, faqatgina Samarqand shahrida davlat ro‘yxatidan o‘tgan 1ta importchi tashkilot 2 yil davomida ushbu reytingda o‘z o‘rnini nafaqat saqlab qolgan balki mustahkamlagani aniqlangan.

2019-yil davomida mandarin importida ushbu kompaniyaning ulushi **9,83 % yoki 2419276 kg** mandarin mahsulotini tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilning 11 oyi yakuni bilan aynan ushbu tashkilotning ulushi **11,43 % yoki 2722516 kg. mandarin mahsulotini Pokiston davlatidan import qilgan.**

III. ICHKI BOZORDA SHAKLLANGAN CHAKANA NARXLAR MONITORINGI NATIJALARI

2020-yilning 20-dekabr holatiga respublika dehqon bozorlari, yirik savdo majmualari va do‘kon va rastalarida sitrus mevalarini sotish bo‘yicha shakllangan chakana narxlar tahlili quyidagi ko‘rinishni hosil qildi (javdalga qarang).

Respublika hududlaridagi bozorlar (rastalar va do‘konlar) va shuningdek yirik supermarketlarda sitrus mevalarini chakana sotish narxlari

2020-yil 20-dekabr holatiga

T/r	Hududlar	Mandarin		Apelsin		Ananas		Kivi		Banan	
		Bozor narxi 1 kg. uchun	Super Market 1 kg. uchun	Bozor narxi 1 kg. uchun	Super Market 1 kg. uchun	Bozor narxi 1 donasi uchun	Super Market 1 donasi uchun	Bozor narxi 1 kg. uchun	Super Market 1 kg. uchun	Bozor narxi 1 kg. uchun	Super Market 1 kg. uchun
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	31000-50000	36000-52000	28000-34000	34000-37000	70000-72000	75000-80000	23000-25000	27000-30000	20000-24000	22000-25000
2.	Andijon viloyati	48000-50000	20000	27000-33000	50000	45000-50000	50000	20000-23000	25000	18000-20000	22000
3.	Buxoro viloyati	42000-45000	45000-48000	27000-30000	25000-28000	40000-45000	45000	20000	22000	18000	19000
4.	Jizzax viloyati	40000-41000	31000-41250	25000-28000	31250-38000	55000-60000	75000	23000	25000-30000	19000-20000	21000-23000
5.	Qashqadaryo viloyati	43000-45000	50500	25000-30000	34000-39000	45000	54000	18000-20000	24000	18000-19000	19000
6.	Navoiy viloyati	44000-45000	53800	27000-35000	30000	60000-65000	72600	20000-22000	22500	20000	22500
7.	Namangan viloyati	42000-45000	53000-55000	34000-38000	35000-39000	50000-55000	45000-47000	20000-23000	23000-24000	18000-20000	19000-21000
8.	Samarqand viloyati	45000-46000	55000	28500-30000	30000-31000	65000	71000	21000	21500	18000-19000	19500-21500
9.	Surxondaryo viloyati	47000	54000	28000	30000	80000	100000	19000	23000	18000	20500
10.	Sirdaryo viloyati	47000	49000	28000	29000	80000	85000	19000	20000	18000	19000
11.	Toshkent viloyati	14000-45000	29990-55990	28000-33000	26490-36990	45000-60000	57990	21000-36000	23790-55990	15000-20000	19990-44990
12.	Farg‘ona viloyati	42000-45000	55000	25000-27000	37000	45000-50000	47000	22000-23000	24000	18000-19000	19000
13.	Xorazm viloyati	45000-50000	50000-54000	25000-30000	31000-35000	45000-60000	60000-70000	22000-25000	25000	18000-22000	20000-25000
14.	Toshkent shahri	45000-50000	55000	26000-30000	26500-27500	45000-80000	58000	22000-30000	24000-56000	15000-22000	18000-20000

Ushbu mahsulotlarga bojxona to‘lovlari kilogrammga, karantin, gigiyenik, muvofiqlik sertifikatlari to‘lovlari esa transport birligiga hisoblanishi va undirilishi aniqlandi.

Tahlil davomida import qilingan mandarin mahsulotini xarid narxi bir tonnasi 100 – 120 AQSH dollari tashkil etgan (bojxona organlari narx ma'lumotlari byulleteniga asosan).

IV. IMPORTCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI BILAN O'TKAZILGAN SO'ROVNOMALAR ASOSIDA ANIQLANGAN MA'LUMOTLAR TAHLILI

1. Import xarajatlarining strukturasi tahlili

Shuningdek, tahlil jarayonida import qilingan ushbu sitrus mahsulotining har bir kilogramiga xarid narxi va bojxona to'lovlari (bojxona boji, QQS to'lovi, bojxona yig'imi, muvofiqlik, karantin va gigiyenik sertifikatlar) uchun (bir kg. uchun) 5487 so'mni tashkil etganligi hujjatlardan aniqlandi.

1 tonna mahsulotning xarid narxi va to'lovlari o'rganilganda:

- xarid narxi 1 mln so'm (**18,2 foiz**),
- bojxona boji 2,3 mln so'm (**41,9 foiz**),
- QQS to'lovi 2,1 mln so'm (**38,3 foiz**),
- bojxona yig'imi 27,2 ming so'm (0,5 foiz),
- muvofiqlik sertifikati 45000 so'm (0,8 foiz),
- karantin sertifikati 11000 so'm (0,2 foiz),
- sanitar xulosa 4000 so'm (0,07 foiz)ga to'lovlarni tashkil etganligi aniqlandi.

Shu bilan bilan birga o'tkazilgan o'rganishda mandarin katta sorti (Pokiston) mahsulotini ulgurji narxi 8000 – 9000 so'mdan realizatsiya qilinayotganligi, dehqon bozorlaridagi chakana narxi 12000 so'mdan - 14000 so'mgacha sotilayotgani qayd etildi.

Tahlil jarayonida dekabr oyida import qilingan (katta) mandarinning har bir kilogrammiga import narxi 1258.1 so'mni bojxona to'lovlari (QQS to'lovi, bojlar va boshqa bojxona yig'implari, muvofiqlik, karantin va gigenik sertifikatlar va ruxsatnomalar hamda tashish bilan bog'liq avtotransport xarajatlari) jami 4874 so'mni tashkil etmoqda. 1 kg mandarin narxi esa 6132 so'mni tashkil etmoqda.

Mandarin (katta) mahsuloti asosan Afg'oniston orqali Pokiston davlatidan (81,9 %) import qilinmoqda.

Mandarin importi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar bilan suhbat jarayonida Afg'oniston davlatining Xayraton hududidan Surxondaryo viloyatining Ayritom bojxona hududidagacha bo'lgan masofa uchun **1 ta yuk-transportiga 20 000 kg mahsulot yuklanishi va transport xarajatlari o'rtacha 700 AQSH dollarini** tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

Ichki bozorda Sitrus mevalarning ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari bilan suhbat jarayonida, mandarin (katta) mahsulotini import qiluvchi xo'jalik subyektlaridan 9000 so'mga sotib olayotganligini ma'lum qilishdi.

Hozirda sitrus mevalarning ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 kg mandarin (katta) mahsuloti bozorlarda 10 000 so'm ekanligi, chakana sotuvchilar tomonidan 10 000 -11 000 so'mgacha sotilayotganligi kuzatildi.

Mandarin mahsulotini Xitoy Xalq Respublikasidan import qilishdagi bir furaning transport xarajatlari:

2019-yilda 4000-5000 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa,

2020-yilda pandemiya sababli bitta furaning transport xarajati 25000-26000 AQSH dollariga chiqib ketganligi natijasida, narxlarning oshishiga sabab bo'layotganligi hamda mazkur bozorga barcha tadbirkorlik subyektlarining kirishiga to'siq bo'layotganligini ma'lum qilgan.

Bojxona to'lovlarning qimmatligi, ya'ni 41,33 tonna banan mahsuloti uchun **288884660 mln.sum** bojxona to'lov amalga oshirilganligini ma'lum qilgan.

Xitoy Xalq Respublikasidan mandarin mahsulotini import qilishda, Xitoy bojaxonachilari tomonidan belgilangan muddatda mahsulotlarni chiqarilmasligi va ushbu jarayonda qo‘shimcha xarajatlar qilinishiga olib kelayotganligi, buning natijasida, mahsulot tannarxi qimmatlashayotganligini ma’lum qilgan.

Sitrus mevalari uchun fitosanitar sertifikatini olish, bojxona to‘lovlarining qimmatligi va ushbu mahsulotlarni boshqa tadbirkorlik subyektlari tomonidan bojxona to‘lovlarisiz noqonuniy olib kirilishi natijasida, ular tomonidan sotilayotgan mahsulotlar narxi arzonligini izohlagan.

Tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan suhbatda keltirilayotgan sitrus mevalarni Xitoy davlatidan Qozog‘iston orqali tranzit olib kirilayotganligi sababli transport va hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlari ortib ketayotganligini bildirgan. Xarajatlar tarkibi quyidagicha bo‘lgan:

- 1 tonna Mandarin (Xitoy kichik) xarid narxi 12 125 000 so‘mni;
- 1 tonna Mandarin uchun Transport xarajati 15 750 000 so‘mni (1500 \$);
- 1 tonna Mandarin uchun Bojxona boji 4 410 000 so‘mni (20%);
- 1 tonna Mandarin uchun QQS 2 064 000 so‘mni (15%);
- Bir martalik sertifikatlar va ruxsatnomalar uchun 2 627 300 so‘mni;
- 1 tonna Mandarin uchun boshqa xarajatlar 1 500 000 so‘mni;

Jami xarajatlar **1 tonna mandarin uchun 38 500 000 so‘mni** tashkil etganligini ma’lum qilgan.

Qashqadaryo viloyatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan 2ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020-yilning **noyabr oyida 56,9 tonna yoki 16,708 ming** AQSH dollarida mandarin Xitoy davlatidan import qilingan. Ushbu mandarinning 1 tonnasi uchun o‘rtacha narxi noyabr oyida 293 AQSH dollarini tashkil qilgan.

Mandarin (Pokiston) mevasining 1 kg chakana narxi noyabr oyida 26 990 so‘m bo‘lib, 1-10-dekabr kunlarida noyabr oyiga nisbatan 11 000 so‘m (40,8%)ga arzonlashib 15 990 so‘mni, joriy oyning 11-16-dekabr kunlarida 1-10-dekabr kunlariga nisbatan 4500 so‘m (28,1%)ga arzonlashib 11 490 so‘mni tashkil qilgan.

Mandarin (Turkiya) mevasining 1 kg narxi noyabr oyida 22 990 so‘m bo‘lib, 1-10-dekabr kunlarida noyabr oyiga nisbatan 7 000 so‘m (30,5%)ga qimmatlashib 29 990 so‘mni, joriy oyning 11-16-dekabr kunlarida 1-10-dekabr kunlariga nisbatan 4 000 so‘m (13,3%)ga arzonlashib 25 990 so‘mni tashkil etgan.

Mandarin medovka (Xitoy) mevasining 1 kg narxi noyabr oyida 47 990 so‘m bo‘lib, 1-10-dekabr kunlarida noyabr oyiga nisbatan 7 000 so‘m (14,6%)ga qimmatlashib 54 990 so‘mni, joriy oyning 11-16-dekabr kunlarida 1-10-dekabr kunlariga nisbatan 5 000 so‘m (9,1%)ga arzonlashib 49 990 so‘mni tashkil qilgan.

2020-yil 10-dekabrda 1 ta hisob faktura bo‘yicha 20655 kg mandarinni 1 kg 1,1 dollardan, umumiy qiymati 22731,5 dollarlik Eron davlatidan import qilingan bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan mandarinning O‘zbekistonga kirib kelishi xarajatlari tahlili quyidagicha:

1. Netto vazni: 20 655,0 kg.
2. Umumiy qiymati: 237 386 645,71 so‘m (22731,5\$).
3. Bojxona yig‘imi: 474 773,29 so‘m.
4. Bojxona boji: 94 954 658,28 so‘m. (237 386 646 so‘m*40%)
5. QQS: 49 851 195,6 so‘m. (237 386 646 so‘m+94 954 658,28 so‘m*15%)
6. Bojxona saqlash xizmati: 474 773,29 so‘m.
7. Karantin transport birligini ochish dalolatnomasi: 223000 so‘m.
8. Karantin ruxsatnomasi: 223 000 so‘m.
9. SES xulosa: 122 374 so‘m.
10. O‘zstandart agentligi sertifikatlashtirish xizmati: 686 500 so‘m.
11. O‘zstandart agentligi sertifikatlashtirish xizmati: 229 540 so‘m.
11. Deklarant xizmati: 669 000 so‘m.

Jami: 385 295 460,17 so‘mni tashkil etmoqda.

Yuqoridagi xarajatlardan kelib chiqib, Eron davlatidan 2020-yil 10-dekabr kuni olib kelingan mandarinni 1 kg 18653,9 so‘mni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, tushirish, saqlash va yana qayta ortish hamda ichki hudud transportirovkasiga 1 kg uchun 1000 so‘mdan xarajatlar qo‘shilishi hisobiga 1 kg mandarin tannarxi 19653,9 so‘mni tashkil etmoqda.

Bugungi kunda ushbu mandarinni 1 kg ni 20 000 so‘mdan ulgurji va chakana narxlarda ichki bozorga sotilayotganligi bildirildi.

Shuningdek, o‘rganish davomida tadbirkorlar Eronda yetishtirilgan mandarin mahsulotini import qilishda hamda mahsulot tannarxi ko‘tarilib ketishiga bir qancha muammolar yuzaga kelganligi bildirildi:

- Mahsulotni Eron davlatidan kirib kelishi hisobiga bojxona bojining **40 foiz qo‘llanilishi (boshqa davlatlar uchun 20% bojxona boji undiriladi)** hisobiga 1 kg uchun 4597 so‘mdan to‘lovlar undirilganligi;

- Mahsulot Buxoro viloyatining Olot bojxona postida Bojxona va karantin xodimlari tomonidan **mahsulot to‘liq yuk mashinasidan tushirilishi talab etilganligi sababli**, mahsulot issiq-sovuq bo‘lishi va qaytadan yuklash hisobiga mandarin o‘z sifatini yo‘qotishga olib kelishi;

- Karantin laboratoriyasi uchun hududlarda **karantin ruxsatnomasi berilishiga yo‘lga qo‘yilmaganligi** sababli, faqat Toshkent shahrida joylashgan Respublika O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan karantin ruxsatnomasi berilishi;

- O‘zstandart agentligining sinov va sertifikatlashtirish xizmatlari ham faqatgina **Toshkent shahrida joylashgan** O‘zbekiston ilmiy sinov va sifat markazi davlat unitar korxonasi tomonidan amalga oshirilishi, hududiy filiallar tomonidan sinov va sertifikatlashtirish xizmatlarini amalga oshirish yo‘lga qo‘yilmaganligi bildirildi.

Buning natijasida tadbirkorlar tomonidan viloyatga olib kirilgan mandarin mahsuloti vaqt o‘tishi hisobiga qo‘shimcha kunlik transport xarajatlari va mahsulot xususiyatini (sifati) yo‘qotilishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, o‘rganish davomida mandarin (katta) mahsulotining bozor hududidagi savdo nuqtalari, yirik savdo majmualaridagi sitrus mevalarini sotuvchi tadbirkorlik subyektlari bilan o‘tkazilgan suhbatlar jarayonida sitrus mevalari asosan Toshkent shahridan olib kelinishi va sitrus mevalarining sotilish narxlari Toshkent shahridagi yirik bozorlarda shakllangan narxlarga o‘z xarajatlarini (transport, yuklash tushirish, patta to‘lovlari) qo‘shgan holda sotayotganliklarini bildirdilar.

Toshkent viloyatida o‘tkazilgan tahlillar yuzasidan:

O‘rganish natijasida Yangiyo‘l, Chirchiq shahar va Chinoz tumani dehqon bozorlarida mandarin mahsuloti Pokiston davlatidan keltirilgani 15000-20000 so‘mdan, Xitoy davlatidan keltirilgan Medovik (kichik) 38000-40000 so‘mdan, Turkiya davlatidan keltirilgani 24000-30000 so‘mdan, Apelsin mahsuloti Turkiya davlatidan keltirilgani 28000-30000 so‘mdan, Afrika davlatidan keltirilgani 40000 so‘mdan, Ananas mahsuloti Ekvador davlatidan keltirilgani (donasi) 40000-50000 so‘mdan, Xitoy davlatidan keltirilgani 55000-60000 so‘mdan, Kivi mahsuloti Turkiya davlatidan keltirilgani 30000-35000 so‘mdan, Pokiston davlatidan keltirilgani 21000 so‘mdan, Eron davlatidan keltirilgani 27000 so‘mdan, Banan mahsuloti Ekvador davlatidan keltirilgani 18000-20000 so‘mdan chakana narxlarda sotilayotganligi aniqlandi.

Ushbu holat viloyatda joylashgan yirik savdo majmualarida o‘rganilganda, Qibray tumanidagi “Makro” supermarketda:

- Mandarin mahsuloti Turkiyada yetishtirilgan - 30990 so‘m;
- Pokiston mandarini - 16890 so‘mdan;
- Apelsin mahsuloti Turkiya - 27580 so‘mdan;
- Apelsin mahsuloti Afrika - 34990 so‘mdan;
- Apelsin mahsuloti Ekvador - 36990 so‘mdan;

- Ananas mahsuloti Ekvador - 57990 so‘mdan;
- Kivi mahsuloti Argentina - 55990 so‘mdan;
- Kivi mahsuloti Ekvador - 23790 so‘mdan;
- Banan mahsuloti Ekvador - 18990 so‘mdan sotilayotganligi aniqlandi.

Toshkent tumanidagi “Korzinka” supermarketidagi narxlar:

- Mandarin mahsuloti Turkiya - 28990 so‘mdan;
- Xitoy Medovik (kichik) - 55990 so‘mdan;
- Apelsin mahsuloti Turkiya - 26490 so‘mdan;
- Apelsin mahsuloti Afrika - 35990 so‘mdan;
- Ananas mahsuloti Ekvador - 57990 so‘m;
- Kivi mahsuloti Ekvador - 27490 so‘mdan;
- Banan mahsuloti Ekvador - 19990 so‘mdan chakana narxlarda sotilayotganligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bozor bilan yirik do‘konlar o‘rtasida mandarin va ananas mevalarning narxlari keskin farq qilmoqda. Xususan, Xitoy davlatidan keltirilgan mandarin medovik mahsuloti dehqon bozoriga nisbatan tarmoq savdo (Makro va Korzinka) do‘konlarida **40 foizga** va Ekvador davlatining Ananas mahsuloti o‘rtacha **28 foizga qimmat narxlarda** sotilayotganligi kuzatildi.

Mazkur import qilingan mahsulotlarni kirib kelishi va sotilishi buyicha narxlarni tahlil ishlari amalga oshirilganda, quyidagi holatlar aniqlandi (javdal ilova qilinadi)

Misol uchun, joriy yilning 15-dekabr holatiga fermer xo‘jaligi tomonidan Turkiya davlatidan **143 tonna miqdoridagi mandarin** mahsulotini **707,3 mln. so‘mga** olib kelgan bo‘lib, ushbu mahsulot uchun QQS, boj va boj yig‘imlari muvofiqlik, karantin, gigiyenik sertifikatlar hamda tashish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar uchun jami **565,9 mln. so‘m mablag‘ to‘lagan**. Natijada jami mandarin mahsulotning tannarxi 1273,2 mln. so‘mni, shundan 1 kg mahsulot tannarxi 8903 so‘mni tashkil qilmoqda.

O‘rganish davomida aynan ushbu tovar yirik supermarket do‘konlarga 15000 so‘mdan yetkazib berilganligi aniqlangan.

Yuqorida qayd etilgan, Turkiyadan keltirilgan mandarin mahsuloti supermarketlar tarmog‘ida **28 990 so‘mdan** hamda **30 990 so‘mdan** sotilgan.

Aynan bir turdagi va sortdagi Turkiyada yetishtirilgan mandarin mahsuloti import qiluvchi tadbirkor tomonidan ulgurji tannarxiga **68 foiz ustama qo‘yib sotayotganligi**, Supermarketlar do‘konlari tarmoqlari tomonidan esa ushbu mahsulotni ulgurji sotib olib, iste‘molchilarga **ikki baravar** ustama qo‘yib chakana savdo orqali sotayotganligini kuzatildi.

“O‘zTEST” DUK Farg‘ona filiali tomonidan taqdim qilingan ma‘lumotlarda korxonalar tomonidan ho‘jalik yurituvchi subyektlarga sitrus mevalarining muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilayotgan bo‘lib, sertifikat to‘lovi **bir to‘p mahsulot uchun 916 040,0 so‘mni tashkil etadi**.

Farg‘ona viloyati davlat Karantin inspeksiyasi taqdim qilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, import qilingan sitrus mevalar uchun tashkilot tomonidan AKD va IKR xizmatlari ko‘rsatiladi. Ushbu xizmatlarni ko‘rsatganlik uchun mahsulot miqdoridan qat‘iy nazar har bir xizmat turi uchun – 223 ming so‘mdan xizmat to‘lovi undiriladi.

Bundan tashqari, sitrus mevalar narxlarini keskin ko‘tarilishi sabablarini aniqlash bo‘yicha xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan suhbatlashilganda, ular tomonidan narxlarni ko‘tarilishiga asosiy sabab sifatida aynan transport-logistika xizmatlarini narxlari ko‘tarilganligi ko‘rsatildi.

Shuningdek, hulosa qilib aytganda mandarin import qiluvchilar o‘rtasida narxlarni sun‘iy oshirgan holda qo‘llash to‘g‘risida kelishilgan xarakatlar aniqlanmadi.

V. MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR

Tadbirkorlik subyektining ma‘lum qilishicha 2020-yilning dekabr oyida Turkiya Respublikasidan jami 39tonna apelsin mahsulotini har bir tonnasini 1000 AQSH dollardan import

qilganligini biroq, bojxona organi bojxona bojini hisoblashda olib kelingan narxda emas balki, **bojxonaning elektron bazasidagi narx** (1 tonnasi uchun - 1100 AQIII dollari)ga qarab bojxona boji undirilayotganligini ma'lum qilgan.

Bundan tashqari, bojxona organi tomonidan jamiyat tomonidan olib kelingan apelsin mahsulotining bojxona yuk deklaratsiyasiga **Turkiya Respublikasi bojxona organining asl muhri so'ralganligi** (ushbu talab boshqa davlatlarda so'ralmasligi) kabi muammolar ulgurji narx shakllanishiga bevosita ta'sir qilayotganligini ta'kidlab o'tdi.

Vaholanki, bojxona organlari o'zaro elektron axborot almashinuvi orqali bojxona yuk deklaratsiyasining haqiqiylikini **QR kod** orqali ham tekshirib bilib olishlari mumkinligi ma'lum qilingan.

Shu bilan birga, apelsin uchun bojxona boji 20 foiz va QQS - 15 foiz ekanligi hamda 1 dona yuk mashinasida (fura) Turkiya Respublikasidan O'zbekistonga yuk olib kelish 5000-6000 AQSH dollari miqdorida mablag' sarflanishi narxlarning oshib ketishiga sabab bo'lganligi bildirilgan.

Hozirgi kunda jamiyat hali ham Turkiya Respublikasidan olib kelingan apelsin mahsulotini O'zbekiston Respublikasi bojxona organlaridan hujjatlar asosida rasmiylashtirib olib chiqa olmaganligini aytib o'tgan.

Shuningdek, mandarin mahsulotlari o'rtasida O'zbekistonda eng xaridorgir hisoblanadigan "Medovka" nomli mandarin mahsuloti narxining keskin oshib ketishiga asosiy sabablardan biri, ushbu mahsulotning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasidan import qilinishi va Mandarinning aynan shu turi eksporti bilan bog'liq cheklovlar joriy qilinganligi ma'lum qilingan.

Jumladan, ayni kunlarda Xitoy Xalq Respublikasida yetishtirilgan mandarin mahsuloti narxi o'tgan yilga nisbatan 40% oshganligi, koronavirus pandemiyasi sababli mandarin mahsulotlari eksportga deyarli sotilmayotganligi va mandarin mahsulotining Xitoydan Respublikamiz bojxona postigacha yetib kelishi uchun **eng kamida 2 hafta muddat talab etilayotganligi**, bu esa o'z navbatida yo'l xarajatlarining oshib ketishi hamda mahsulotning vazn va sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etganligi ko'rsatilgan.

Tadbirkorning ta'kidlashicha, bitta yuk mashinasida (20 tonnalik) sitrus mahsulotlarini Xitoy Xalq Respublikasidan O'zbekistonga tashib keltirish narxi 2019-yilda o'rtacha 7000-8000 AKSH doll.ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilning dekabr noyabr-dekabr oylarida bitta 18 tonnalik furaning tashish narxi o'rtacha 15000-20000 AQSH doll.gacha oshib ketganligi asosiy sabab sifatida ko'rilgan.

COVID-19 koronavirus karantin cheklovlari tufayli Turkmaniston Respublikasi orqali o'tish yo'llari yopiqligi uchun yuk tashish transport vositalari Ozarbayjon Respublikasi hududlari orqali kirib kelayotganligi bu o'z navbatida transport xarajatlarining oshishiga olib kelmoqda.

Sitrus mevalarini Xitoy davlatidan olib kelishda ham avtoyo'l bilan bog'liq muammolar ya'ni Qozog'iston Respublikasi cho'llarida ob-havoning keskin sovib ketganligi, magistral yo'llarning qor-muz bilan qoplanganligi mahsulotlarning kirib kelish muddati cho'zilishiga hamda havo haroratining (-35), (-40) darajagacha sovib ketishi oqibatida yuk tashish transport vositalaridagi refrijerator ishdan chiqishiga sabab bo'lib, sitrus mevalarni muzlashi natijasida ularning chirishiga sabab bo'lgan ayrim xususiy holatlar ham ma'lum qilingan.

Tadbirkorlarning ma'lum qilishlaricha, Xitoy davlatidan mandarin mevasini Farg'ona viloyatiga yetkazib berish logistika xizmati uchun 2020 yil boshida va o'rtalarida **har bir yuk mashinasi (fura) uchun 4000 AQSH dollari miqdorida to'lov amalga oshirilgan.**

2020-yilning noyabr-dekabr oylarida import yuklarni tashib keltirish bo'yicha bitta fura narxi qariyb **16000 AQSH dollarga ko'tarilgan.** Bunga asosiy sabab sifatida, logistika xizmati ko'rsatuvchi subyektlar O'zbekistonda sitrus mevalarga bo'lgan talab ko'tarilgan sharoitda, Xitoy davlatiga kirish va chiqishda qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Mazkur qiyinchiliklar pandemiya sharoiti tufayli yuzaga kelgan bo'lib, Xitoy davlati cheklangan shaxslar orqali sitrus mevalarni mamlakatdan olib chiqib ketishga ruxsat bermoqda.

**VI. MAHALLIY VA YAQIN XORIJIY DAVLATLARDAGI SITRUS
MEVALARINING YIRIK SAVDO TARMOQLARIDAGI ISTE'MOLCHILARGA
SOTISH CHAKANA NARXLARI TAHLILI**

Toshkent shahridagi “Makro” supermarketidagi tarmoqlaridagi narxlar:

1 kg Mandarin katta Turkiya mahsuloti – 25 990 so‘m;

1 kg Mandarin medovka Xitoy – 54 990 so‘m;

1 kg Pokiston mandarini – 15 890 so‘mdan,

Toshkent shahridagi “Korzinka” supermarketi tarmoqlaridagi narxlar:

1 kg Turkiya katta mandarini – 26 490 so‘mdan;

Moskva shahridagi “Perekrestok” supermarketlari tarmog‘idagi narxlar:

1 kg Mandarin (69,9 rubl- 199,9 rubl) yoki **11184 so‘mdan – 31 984 so‘mgacha chakana narxlarida iste‘molchilarga sotilayotganligi aniqlandi.**

Sitrus meva nomi	Toshkent shahridagi “Korzinka” supermarketlari tarmog‘i	Toshkent shahridagi “Makro” supermarketlari tarmog‘i	Moskva shahridagi “Perekrestok” supermarketlari tarmog‘i
1	2	3	4
Ananas 1 donasi	57990 so‘m	36990 sum - 57990 so‘m	(109,9 rubl) 17584 so‘m
Apelsin Turkiya mahsuloti 1 kg uchun	26490 so‘m	27580 so‘m	
Apelsin Afrika mahsuloti 1 kg uchun	35990 so‘m	34990 so‘m	
Apelsin Ekvador mahsuloti 1 kg uchun		36990 so‘m	
Mandarin Medovik Xitoy mahsuloti 1 kg uchun	55990 so‘m	54 990 so‘m	(69,9 rubl- 199,9 rubl) yoki 11184 so‘mdan – 31 984 so‘m
Mandarin Turkiya mahsuloti 1 kg uchun	28990 so‘m	25 990 so‘m -30990 so‘m	(69,9 rubl- 199,9 rubl) yoki 11184 so‘mdan – 31 984 so‘m
Mandarin katta Kinnaw Pokiston mahsuloti 1 kg uchun		16890 so‘mdan	(69,9 rubl- 199,9 rubl) yoki 11184 so‘mdan – 31 984 so‘m
Kivi Ekvador mahsuloti 1 kg uchun	27490 so‘m	23790 so‘m	
Kivi Argentina mahsuloti 1 kg uchun		55990 so‘m	
Banan Ekvador mahsuloti 1 kg uchun	19990 so‘m	18990 so‘m	(71,9 rubl) -11504 so‘m

Izoh: Kokos, mango, kivi kabi mevalarning ham narxlari Toshkent shahridagi supermarketlarda Moskva shahridagi supermarketlarga nisbatan yuqori ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Argentinadan 07.09.2020-yilda import qilib keltirilgan 1 kg mandarinning tahminiy tannarxi - **27820,05 so‘m**, savdo do‘konlardagi narxi o‘rtacha 55 000 so‘m ekanligi hisobga olinsa, narxning qariyb 50% tannarx (O‘zbekiston hududiga kirib kelishi) holgan qismi yetkazib berish, ulgurji va savdo ustamalariga to‘g‘ri kelmoqda.

Turkiyadan 05.11.2020-yilda import qilib keltirilgan 1 kg mandarinning tahminiy tannarxi - **12047,46 so‘m**, savdo do‘konlaridagi narxi o‘rtacha 18000 - 26000 so‘m ekanligini hisobga olinsa, narxning qariyb 50% tannarx (O‘zbekiston hududiga kirib kelishi) qolgan qismi yetkazib berish, ulgurji va savdo ustamalariga to‘g‘ri kelmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasidan 18.11.2020-yilda import qilib keltirilgan 1 kg mandarinning tahminiy tannarxi - **17677,05 so‘m**. savdo do‘konlaridagi narxi

40 000 - 54 000 so‘m ekanligi hisobga olinsa, narxning qariyb 50% tannarx (O‘zbekiston hududiga kirib kelishi) qolgan qismi yetkazib berish, ulgurji va savdo ustamalariga to‘g‘ri kelmoqda.

VII. TAKLIFLAR.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- O‘rganish natijasida sitrus mevalarning importi bilan bog‘liq barcha bojxona to‘lovlari yuqoriligi kuzatilmoqda. Jumladan, taqdim etilgan ma‘lumotlarga muvofiq bojxona tomonidan mandarin (katta) mahsuloti importi bo‘yicha bojxona to‘lovlari 1 kg mahsulotga nisbatan 1.1 AQSH dollari miqdorida hisoblanmoqda.

Sitrus mevalarning importi bilan bog‘liq barcha bojxona to‘lovlari hamda uni hisoblash tartibini qayta ko‘rib chiqish va ularni kamaytirish yuzasidan taklif beriladi;

- Hozirda muvofiqlik, fitosanitar, karantin va gigiyenik sertifikatlar va ruxsatnomalar markazlashtirilgan tartibda faqatgina Toshkent shahridan rasmiylashtirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida import qiluvchilarning ortiqcha vaqt sarflashlari va qo‘shimcha xarajatlar sarflanishiga olib kelmoqda, pirovard natijada ushbu xarajatlar chakana xaridorlar zimmasiga yuklatilmoqda. Hududlarda tegishli karantin laboratoriyalarini tashkil etish orqali muvofiqlik, fitosanitar, karantin va gigiyenik sertifikatlarni barcha viloyat va tuman markazlarida rasmiylashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- Sitrus mevalari sifati tez buziluvchanligini inobatga olgan holda mamlakatimizda bojxona postlarida transport-logistika va laboratoriya markazlari sonini oshirish va ular faoliyatini tanqidiy o‘rganib chiqish;

- Sitrus mevalarini Eron davlatidan olib kelishda bojxona bojining qayta ko‘rib chiqish va maqbullashtirish (kamaytirilishi) taklif etilmoqda;

- Ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan bojxona bojlarining stavkalarini o‘rnatilgan tartibda qayta ko‘rib chiqib maqbullashtirish;

- Sitrus mevalar asosan uzoq xorijiy davlatlardan keltirilishini inobatga olgan holda mahsulotlar yetishtiriladigan davlatdan Respublikamizga hududiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib kelish tartib-tamoyillarini soddalashtirish;

- Sitrus mevalarni import qiluvchi tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha import masalalariga mutasaddi bo‘lgan vazirlik va idoralarning (MIVT, GTK, Karantin, SES, Uzstandart kabi) mansabdor shaxslari ishtirokida seminar va biznes o‘quv kurslarini tashkil etish.